



CHINGIZ AYTMATOVNING "JAMILA" QISSASIDA BOSH
QAHRAMON ICHKI KECHINMALARI TASVIRI

Ziyatova Dilorom Pardayevna.

Osiyo texnologiyalar universiteti 1-bosqich magistranti.

dziyatova11@gmail.com.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Chingiz Aytmatovning "Jamila" qissasida bosh qahramon ichki kechinmalari psixologik tahlil qilinadi. Asarda Jamila obrazining ruhiy olami, muhabbat va erkinlik o'rtasidagi ziddiyatlar, shuningdek, jamiyat me'yorlari bilan shaxsiy tuyg'ular to'qnashuvi yoritiladi. Muallif tomonidan qo'llangan ichki monolog, psixologik detal va tasvir vositalari asosida qahramon ruhiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Jamila, ichki kechinma, psixologizm, muhabbat, erkinlik, ruhiy konflikt, ayol obrazi.

Kirish.

Chingiz Aytmatov nasrida inson ruhiyati tasviri yetakchi o'rinni egallaydi. Jamila qissasi yozuvchi ijodida alohida bosqich bo'lib, unda inson qalbidagi eng nozik tuyg'ular, ayniqsa ayol ruhiyatining murakkab qatlamlari ochib beriladi. Asarda bosh qahramon Jamila ichki kechinmalari orqali muhabbat, sadoqat, erkinlik va jamiyat talablarining o'zaro ziddiyati badiiy talqin etiladi.

Aytmatov asarlarida tabiat va insonning aloqasi muhim o'rin tutadi. Jamilada tabiat, asosan, qahramonlarning ruhiy holatlari va sevgi hissiyotlari bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Jamila va uning sevgilisi o'rtasidagi munosabatlar o'z navbatida tabiatda yuz berayotkan voqealar bilan bog'lanadi.

Asosiy qism.

Jamila asarida insonning sevgi va sadoqatini ijtimoiy sharoitlar bilan bog'lash Aytmatovning adabiyotdagi muhim xususiyatlaridan biridir. Qahramonlarning munosabatlari o'zaro sevgi va baxtni izlashda ko'rsatilgan bo'lsa-da, ular ayni paytda jamiyatning yirik, muhim va qat'iy normalari bilan to'qnashuvga



duch kelishadi. Jamila o'zining orzulari va ehtiyojlarini amalga oshirishda muayyan to'siqqa uchraydi. Ushbu to'siqlar uning o'zini anglash yo'lidagi eng katta sinovdir.

Asar o'z navbatida jamiyatning ijtimoiy qadriyatlari va qadimgi an'analar bilan insonning shaxsiy orzulari va sevgi haqidagi yangi tushunchalar o'rtasidagi ziddiyatni o'rganadi.

Jamila ichki kechinmalarining asosiy manbasi- qalb ehtiyoji bilan jamiyat talablarining to'qnashuvidir. U o'z baxtini izlash jarayonida ichki kurashni boshdan kechiradi. Bu kurash muallif tomonidan nozik psixologik tasvirlar orqali beriladi.

Jamila va Doniyor o'rtasidagi munosabat asarning ruhiy markazini tashkil etadi. Doniyorning sokinligi, dardi, qo'shiqlari Jamila qalbida yashirin tuyg'ularni uyg'otadi. Aynan shu jarayonda uning ichki kechinmalari kuchaydi. Jamila o'zini aybdor his qiladi, chunki jamiyat nazarida u turmushga chiqqan ayol. Ammo uning qalbi tirik, muhabbatga tashna. Ichki monologlar va psixologik detallar (nigoh, sukut, qo'shiq ohangi) orqali muallif Jamila ruhiyatidagi iztirob va ikkilanishni tasvirlaydi.

Jamila kechinmalarining eng muhim nuqtasi - erkinlikka intilishidir. U jamiyatning qotib qolgan qarashlariga buysunishni istamaydi. Muhabbatni tanlash orqali u nafaqat shaxsiy baxtni, balki ruhiy ozodlikni tanlaydi.

Asar yakunida Jamila qarori ichki yetuklik mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Bu qaror tasodifiy emas, balki uzoq davom etkan ruhiy kurash natijasidir. Shu jihatdan Jamila obrazi Aytmatov nasrida ayol shaxsiyatining uyg'onishi ramziga aylanadi.

Xulosa.

"Jamila" qissasida bosh qahramon ichki kechinmalari muhabbat va erkinlik g'oyalarini ochib berishda asosiy badiiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Jamila obrazi orqali yozuvchi inson qalbining murakkabligi, jamiyat va inson o'rtasidagi ziddiyatni chuqur psixologik tahlil qiladi.

Chingiz Aytmatov Jamila ruhiy dunyosini tasvirlashda ichki monolog, psixologik detal va ramziy tasvirlardan mahorat bilan foydalanadi. Natijada asar



nafaqat muhabbat qissasi, balki inson inson o'zligini anglash va ruhiy ozodlikka erishish haqidagi falsafiy asarga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Aytmatov Ch. Jamila. Bishkek: Ilim.1971.
2. Azimov A. Chingiz Aytmatov va o'zbek adabiyoti. Asarlar va tahlillar.
3. Turg'unov A. Aytmatov va adabiyotshunoslik. -Bishkek: Kyrgyzstan. 58-89- b.
4. Shamsiyeva Z. Aytmatov va Markaziy Osiyo adabiyoti. Toshkent: O'zbekiston. 2010. 34-b.
5. Rashidov A. Chingiz aytmatov olami.- Toshkent: O'qituvchi 2011.
6. Solijonov Y. Abdukarimov T. Chingiz Aytmatov inson va tabiat kuychisi. Risola.
7. Rasulova M. Chingiz Aytmatov Jamila asari. International scintific conference. 2023, Munchin. Germany.
8. Kosimov R. Chingiz Aytmatovning Jamila asarida insoniy munosabatlar va sevgi mavzusi. Экономика и социум. N 12(127)- 1 2024.